MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSTIETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: BOZOR TENDENSIYALARI VA XALQARO TAJRIBA 9
Abirkulova Sohibjamol Normuxammad qizi
KUZATUV KAMERALARI VIDEOMA’LUMOTLARI ASOSIDA TALABALAR DAVOMATINI HISOBGA OLISHNING INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMI ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI 15
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi
REGIONAL DISPARITIES IN FOREIGN INVESTMENT AND EXPORTS IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FOR THE TERRITORIAL TIER OF INVESTMENT GOVERNANCE 20
Imamov Javokhir
RAQAMLI PLATFORMA VA XALQARO MARKETING ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TURIZMI EKSPORTINI OSHIRISH MEXANIZMI 25
Nigmatova Malika Baxtiyorovna
РИСКИ ИИ-АВТОМАТИЗАЦИИ ПРОФЕССИЙ ДЛЯ ВЫПУСКНИКОВ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА: ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЙ АСПЕКТ 31
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
POMIDOR URUG‘LARIGA KO‘RINUVCHI OPTIK NURLANISH VA O‘ZGARUVCHAN MAGNIT MAYDON BILAN KOMBINATSIYALANGAN ISHLOV BERISHNING KO‘CHAT SIFATI VA HOSILDORLIKKA TA’SIRI 36
Rasulov Davronbek, Eshpulatov N.
TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA NATIJAGA ASOSLANGAN YONDASHUV 41
Mahmudova Chinora
BIZNESNING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASHDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI 47
Suyunova Kamilla, Xamroyeva Kumush
XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAKLLANISHI 51
Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li
ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЧАКМАКТАШ 60
Исаходжаев Х. Б., Ишбобаев Т. Б., Пирназаров М. М., Муминов М. Б., Мирзаходжаев Т. Р.
YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘QON SHAHRI IQTISODIYOTINING TARMOQLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 66
Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar
DEPOZIT STAVKALARI PASAYISHI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI VOSITACHILIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH 71
Ortiqboyev Bahrom Bahodir o‘g‘li
MEHNAT SAMARADORLIGI VA BANDLIKNING XIZMATLAR SEKTORIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI 75
Djurayev Olimjon Narkulovich
МОДЕЛЬ КОМПЛЕКСНОГО АНАЛИЗА ПРОЦЕССА КОМПЬЮТЕРНОЙ РАЗВЕДКИ ИНФОКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА 80
Бекбаев Гамзатдин Алеуатдинович
O‘ZBEKISTONDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA SUN’IY INTELLEKT BO‘YICHA TADQIQOTLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI 87
Uteuliev Niyetbay, Saytov Kamiljan
АНАЛИЗ ТЕКУЩИХ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА С УЧАСТИЕМ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ 94
Атаджанова Динара Хасановна

INVESTITSIYA RESURSLARINI YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI TARMOQLARGA QAYTA TAQSIMLASH ORQALI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI KUCHAYTIRISH..... 101
Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi
SIZING THE APERTURE AREA, PHASE-CHANGE TEMPERATURE AND STORAGE CAPACITY OF A SOLAR-CONCENTRATOR-DRIVEN PCM RADIANT FLOOR 107
Jurabek Kamolov, Sokhib Temirov Marjona Makhmudova
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ XAVFLARI BO‘YICHA TUSHUNTIRISHLI XABARNOMALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118
Abdurakhmanov Olim Kalandarovich
QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI 123
Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li

QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI

Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li
Perfect university
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent, PhD

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili keltirilgan. 2010–2024-yillar davomida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari yetishtirilgan mahsulotning 62–72 foizini, fermer xo‘jaliklari 25–36 foizini tashkil qilgan. Chorvachilik mahsulotlarida dehqon xo‘jaliklari ulushi 93–96 foizgacha yetgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, mahsulot tahlili, Qashqadaryo.

Аннотация: В статье представлен анализ сельскохозяйственной продукции Кашкадарьинской области по категориям хозяйств. В 2010–2024 годах на долю дехканских (личных подсобных) хозяйств приходилось 62–72% продукции, фермерских хозяйств – 25–36%. В животноводческой продукции доля дехканских хозяйств достигала 93–96%.

Ключевые слова: сельское хозяйство, дехканские хозяйства, фермерские хозяйства, анализ продукции, Кашкадарья.

Abstract: 3 The article presents an analysis of agricultural products in the Qashqadaryo region by farm categories. During 2010–2024, dehkan (personal auxiliary) farms accounted for 62–72% of total production, while farms accounted for 25–36%. In livestock production, the share of dehkan farms reached 93–96%.

Keywords: agriculture, dehkan farms, farms, product analysis, Qashqadaryo.

KIRISH

Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, fermerlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali fermerlar daromadlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishlarda samarali yechimlarni ishlab chiqish qishloq xo‘jaligining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Ushbu strategiya qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, ekin maydonlaridan samarali foydalanish, mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, g‘alla bilan barqaror ta’minlash hamda oziq-ovqat mustaqilligini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni qamrab oldi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyalashtirishning bozor tamoyillariga asoslangan, fermer xo‘jaliklarining mahsulot sotishdan tushgan daromadlari hisobidan xarajatlarini qoplash va moliyaviy mablag‘lardan foydalanish usullari hamda shakllarini mustaqil tanlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan tizim shakllangan. Shu bilan birga, yerdan samarali foydalanish, uning unumdorligini oshirish va ekin maydonlarini ishlab chiqarish jarayoniga izchil jalb etish bo‘yicha imkoniyatlarni yanada kengaytirish muhimdir. Keyingi yillarda tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda yer unumdorligini oshirish tadbirlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ularning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasida agrar sektorda fermer xo‘jaligi sohasining tarkibiy tuzilmasini iqtisodiy-statistik tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash masalalari N. M. Soatov, Yo. A. Abdullayev, B. Berkinov, T. Sh. Shodiyev, A. Abdug‘aniyev, G‘. X. Qudratov, A. M. Jo‘rayev, R. H. Husanov, A. Qodirov, F. Dusmatov, Q. Choriyev, N. S. Xushmatov, A. X. Burhonov, Ch. Murodov, F. Nazarova,


U. Umurzoqov, I. K. Jumayev, Sh. T. Ergasheva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, iqtisodiy indekslar va korrelyatsion-regression tahlil, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida yillar davomida erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hududning rivojlanganlik darajasiga obyektiv baho berish imkoniyatini oshiradi. Ya’ni, yalpi hududiy mahsulot yetishtirish tahlil qilinayotgan 2019–2024-yillarda o‘zidan oldingi yilga nisbatan mos ravishda 101,8 %, 102,7 %, 106,8 %, 106,7 %, 105,0 % va 106,5 % ga o‘zgarib turgan. Viloyatning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari hisoblanadigan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (101,2 %, 103,9 %, 102,0 %, 105,0 %, 104,3 %, 104,2 %), sanoatda (94,0 %, 102,9 %, 115,4 %, 110,1 %, 107,1 %, 108,0 %), qurilishda (103,2 %, 98,3 %, 117,6 %, 105,3 %, 107,0 %, 112,1 %), xizmatlarda (106,5 %, 102,0 %, 106,3 %, 106,5 %, 104,0 %, 106,8 %), mahsulotlarga sof soliqlarda (102,0 %, 102,9 %, 107,7 %, 112,0 % va 106,9 %) ham ushbu yillarda o‘zgarishlar bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Viloyatda qurilishga berilayotgan e’tibor tufayli oxirgi yillarda o‘zgarish katta bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari indeksi[1], (%)

Qashqadaryo viloyatida fermer xo‘jaliklari tomonidan 2024-yilda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 26,0 % ni tashkil qilgan. Viloyatda fermer xo‘jaliklarining yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Nishon (36,9 %), Yakkabog‘ (34,4 %) va Mirishkor (32,8 %) tumanlariga, eng kam ulushi esa Dehqonobod (3,6 %) tumani hamda Shahrisabz (0,7 %) va Qarshi (0,0 %) shaharlariga to‘g‘ri kelgan. Umuman, viloyatda tahlil qilinayotgan yillarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish 73,5–69,5 %, fermer xo‘jaliklarida 27,6–26,0 % va qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa 2,2–5,1 % atrofida o‘zgarib turgan (2-rasm).




2-rasm. Qashqadaryo viloyatida etishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha

1 O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

taqsimlanishi, %[2]

Yuqorida ta'kidlanganidek, viloyatda yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,0 % fermer xo'jaliklariga, 4,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelgan. Shuningdek, tumanlar kesimida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nishon tumanida (36,9 % va 16,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi esa Dehqonobod tumanida (94,7 %) qayd etilgan. Shuningdek, fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shahrisabz shahrida (0,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (46,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chiroqchi tumanida (1,4 %) qayd etilgan (3-rasm).



3-rasm. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (2024)[3]

Tahlil qilinayotgan yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 816,5 ming tonna don (2022-yilga nisbatan 3,4 % ko'p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmining 81,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan 9,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda 8,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. Viloyatda yetishtirilgan don mahsulotlarining xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (2024)[4]

Viloyatda yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari

2 Qarshi-stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
3 Qarshi-stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4 Qarshi-stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, faqatgina donli ekinlar yetishtirishda fermer xo‘jaliklari hissasi yuqori, ya’ni 2018–2024-yillarda mos ravishda 82,5 %, 85,4 %, 87,1 %, 85,3 %, 81,4 %, 82,3 % va 81,9 % to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, ushbu yillarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga mos ravishda (16,2 %, 13,5 %, 10,7 %, 11,5 %, 11,5 %, 10,0 % va 9,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga mos ravishda (1,3 %, 1,1 %, 2,2 %, 3,2 %, 7,1 %, 7,7 % va 8,9 %) to‘g‘ri kelganligini qayd etib o‘tish lozim. Donli ekinlar yetishtirishda tahlil qilinayotgan yillarda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi muntazam o‘sib borgan. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, viloyatda tahlil qilinayotgan yillarda oziqbop poliz va mevalar yetishtirishda fermer xo‘jaliklari qisman ustunlikka ega bo‘lgan. Uzum yetishtirishda ham keyingi yillarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga tenglashib bormoqda (1-jadval).

1-jadval.
Viloyatda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo‘jalik toifalarining ulushi[5], (%)[6]

	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Donli ekinlar							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga	16,2	13,5	10,7	11,5	11,5	10,0	9,2
Fermer xo‘jaliklari	82,5	85,4	87,1	85,3	81,4	82,3	81,9
Qish.xo‘j. faol.amal.oshir.tash-lar	1,3	1,1	2,2	3,2	7,1	7,7	8,9
Oziqbop poliz							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga	52,6	55,1	52,4	51,6	49,1	48,3	39,8
Fermer xo‘jaliklari	47,3	44,0	46,4	47,6	50,1	50,7	58,8
Qish.xo‘j. faol.amal.oshir.tash-lar	0,1	0,9	1,2	0,8	0,8	1,0	1,4
Mevalar							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga	39,7	41,1	41,2	43,4	45,3	40,2	39,4
Fermer xo‘jaliklari	58,6	57,6	56,4	54,6	51,7	57,3	57,8
Qish.xo‘j. faol.amal.oshir.tash-lar	1,7	1,3	2,4	2,0	3,0	2,5	2,8
Uzum							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga	51,4	51,6	59,0	56,0	55,1	50,3	49,6
Fermer xo‘jaliklari	44,7	46,0	39,0	42,1	43,1	48,2	49,0
Qish.xo‘j. faol.amal.oshir.tash-lar	3,9	2,4	2,0	1,9	1,8	1,5	1,4

Shuningdek, asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining qolgan turlari bo‘yicha ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, asosan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri kelgan.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2018–2024-yillarda viloyatda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining, jumladan, kartoshkaning mos ravishda 86,3 %, 84,0 %, 84,5 %, 80,4 %, 82,3 %, 75,4 % va 72,4 %, sabzavotning mos ravishda 74,3 %, 73,4 %, 73,6 %, 73,7 %, 73,7 %, 67,8 % va 62,8 %, tuxumning mos ravishda 58,5 %, 63,9 %, 64,6 %, 95,9 %, 69,8 %, 63,8 % va 63,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ayniqsa, go‘sht (tirik vaznda) va sut mahsulotlarining mos ravishda 97,1 % va 97,4 %, 96,7 % va 96,9 %, 96,4 % va 96,6 %, 96,4 % va 94,9 %, 95,5 % va 96,3 %, 94,8 % va 96,0 % hamda 94,0 % va 95,4 % i aynan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hisobiga to‘g‘ri kelgan (2-jadval).

2-jadval.
Viloyatda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo‘jalik toifalarining ulushi[7], (%)

	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kartoshka							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga	86,3	84,0	84,5	80,4	82,3	75,4	72,4

5 O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
6 Usha manba
7 O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Fermer xo'jaliklari	13,4	15,7	15,1	19,3	17,0	23,3	26,0
Qish.xo'j. faol.amal.oshir.tash-lar	0,3	0,3	0,4	0,3	0,7	1,3	1,6
Sabzavodlar							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga	74,3	73,4	73,6	73,7	73,7	67,8	62,8
Fermer xo'jaliklari	24,2	25,7	24,6	25,2	24,8	30,4	35,3
Qish.xo'j. faol.amal.oshir.tash-lar	1,5	0,9	1,8	1,1	1,5	1,8	1,9
Go'sht (tirik vaznda)							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga	97,1	96,7	96,4	96,4	95,5	94,8	94,0
Fermer xo'jaliklari	1,5	2,2	2,2	2,2	2,4	3,5	3,8
Qish.xo'j. faol.amal.oshir.tash-lar	1,4	1,1	1,4	1,4	2,1	1,7	2,2
Sut							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga	97,4	96,9	96,6	94,9	96,3	96,0	95,4
Fermer xo'jaliklari	2,4	2,6	2,9	3,0	3,0	3,3	3,7
Qish.xo'j. faol.amal.oshir.tash-lar	0,5	0,5	0,5	2,1	0,7	0,7	0,9
Tuxum							
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga	58,5	63,9	64,6	95,9	69,8	63,8	63,9
Fermer xo'jaliklari	2,7	2,8	3,1	3,4	4,0	5,2	5,9
Qish.xo'j. faol.amal.oshir.tash-lar	38,8	33,3	32,3	0,7	26,2	31,0	30,2

Viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi tahlili natijalari ko'rsatdiki, asosan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi yuqori, ya'ni 2010–2024-yillarda mos ravishda 62,5 %, 66,0 %, 67,1 %, 67,7 %, 70,2 %, 69,9 %, 70,2 %, 67,6 %, 72,8 %, 71,6 %, 71,8 %, 70,6 %, 67,1 %, 68,7 % va 69,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda esa ushbu tahlil qilinayotgan yillarda mos ravishda 24,9–36,3 % va 1,2–5,4 % atrofida o'zgarib turgan. Demak, viloyatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yetishtirilar ekan. Ayniqsa, viloyatda yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarida dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi yanada yuqoriroq, ya'ni 93,3–96,3 % bo'lgan. Faqatgina dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda fermer xo'jaliklari ulushining (61,1–71,0 %) yuqoriligini, ya'ni don va dukkakli don mahsulotlari hamda tola mahsulotlari ishlab chiqarish hisobiga ekanligini ko'rishimiz mumkin, xolos (3-jadval).

3-jadval
Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo'jalik toifalarning tarkibi, (%)[8]

	BTX	Shu jumladan:								
		FX	D(ShY)X	QXFAOT	FX	D(ShY)X	QXFAOT	FX	D(ShY)X	QXFAOT
		Jami			Dehqonchilik			Chorvachilik		
2010	100	36,3	62,5	1,2	71,0	28,4	0,6	2,0	96,3	1,7
2011	100	32,7	66,0	1,3	67,7	31,5	0,8	2,0	96,2	1,8
2012	100	31,6	67,1	1,3	67,2	31,8	1,0	2,2	96,2	1,6
2013	100	30,7	67,7	1,6	64,9	33,9	1,2	2,3	95,9	1,8
2014	100	28,5	70,2	1,3	64,2	35,0	0,8	2,3	96,1	1,6
2015	100	28,7	69,9	1,4	61,8	37,2	1,0	2,2	96,1	1,7
2016	100	28,2	70,2	1,6	64,4	34,5	1,1	2,2	95,8	2,0

8 O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari. Izoh: 2010-2023-yillar uchun ma'lumotlar aniqlik kiritilgan (qayta baholabc hiqilgan) ma'lumotlarni hisobga olgan holda keltirilgan.

2017	100	30,8	67,6	1,6	64,6	34,3	1,1	2,1	95,9	2,0
2018	100	25,2	72,8	2,0	58,9	39,5	1,6	2,4	95,4	2,2
2019	100	26,1	71,6	2,3	61,1	35,6	3,3	2,7	95,7	1,6
2020	100	24,9	71,8	3,3	60,0	34,8	5,2	2,5	95,6	1,9
2021	100	26,8	70,6	2,6	63,0	33,2	3,8	2,6	95,7	1,7
2022	100	27,5	67,1	5,4	62,2	27,7	10,1	3,3	94,6	2,0
2023	100	26,2	68,7	5,1	61,3	29,7	9,0	4,0	93,5	2,5
2024	100	26,0	69,5	4,5	61,7	30,4	7,9	4,2	93,3	2,5

XULOSA VA TAKLIFLAR

Viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ulushi tahlil qilinganda, asosan, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ustunlik qiladi. Tahlil qilinayotgan yillarda chorvachilik mahsulotlari ulushi yuqori bo‘lgan. Buni biz birgina 2024-yil misolida ko‘rib chiqqanimizda, asosan, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ustunlik qilgan, ya’ni 62,1 % chorvachilik va 37,9 % dehqonchilik mahsulotlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Soatov N.M. Statistika: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.– T.:Ibn Sino, 2003.– 744 s.
2. Shodiyev T.Sh. Ekonometrika. Darslik. – T. 2020. -250 b.
3. Shodiyev X.A., Habibullayev I. Statistika. // Darslik – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 268 b.
4. Jumayev I.K. Fermer xo‘jaliklari rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini ekonometrik bashoratlash. Iqt. fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. – T., 2011. –43 b.
5. www.agro.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi.
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100